

**FIZIKA VA ASTRANOMIYA YO'NALISHI TALABALARI UCHUN
BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZULARI**

T/r	Mavzulari	Izoh
1.	Quvvat transformatorlaridan chiqindi moylarni ularning ishlayotgan joyida kompleks tozalash uchun mobil qurilmani ishlab chiqish	-ishlatilgan transformator moylarini kompleks tozalash uchun energiya tejankor texnologiya ishlab chiqiladi. - quvvat transformatorlarining chiqindi moylarini namlangan, eruvchan va mexanik aralashmalardan tozalash uchun eksperimental mobil qurilma ishlab chiqiladi va ishlab chiqariladi. -energiya samaradorligi quvvat transformatorlaridan chiqindi moylarni tozalash natijalari asosida baholanadi. Ish natijalari bo'yicha intellektual mulk ob'yektlari bo'yicha hujjatlar qabul qilinadi va maqolalar O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidan Web of Science va Scopus tomonidan indekslangan ilmiy jurnallarda chop etiladi.
2.	Suffa platosi atmosferasida radio to'lqinlarning yutilishlarini o'rganish.	Jizzax viloyati Zomin tumani Suffa platosida qurilayotgan RT-70 radioteleskopi qurilish maydonchasida (Suffa radio rasadxonasi Turkiston tizmasining shimoliy etagida dengiz sathidan 2500 m balandlikda joylashgan) astroiqlimi mavsumiy kuzatiladi. Atmosfera shaffofligi parametrlari o'zgarishining qisqa va uzoq muddatli qonuniyatlari ko'rib chiqish, statistik diagrammalari tuzish. BMIning asosiy kutilayotgan natijasi astroiqlimni tavsiflovchi statistik ma'lumotlar bo'lib, bu millimetr va submillimetr to'lqin uzunligi diapazonlarining shaffof oynalarida radioastronomiya kuzatuvlarini o'tkazish imkoniyatini o'rganishdir. Bajariladigan ishdan unumli foydalanish maqsadida Suffa platosiga o'quv robot radioteleskopi o'rnatilishi va bu teleskopdan aniqlanayotgan natijalarni avtomatlashtirib oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari va umumta'lim maktablarida astronomiya fani laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyati yoritib beriladi.
3.	Yoqilg'ining solishtirma yonish issiqligi mavzusini grafik organayzerlar vositasi bilan loyihalashtirish.	Hozirgi kunda fizikaning texnikadagi o'rni va rolini o'qitishda grafik organayzerlar vositasi bilan Yoqilg'ining solishtirma yonish issiqligi mavzusini loyihalashtirish umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika faning o'quv mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyatini yoritib beriladi.